

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

O‘UK: 636.082:134.636.3.37.

BUQACHALARNI O‘STIRISH, DAVRLAR KESIMIDA MUTLOQ O‘SISHI.

Davronov Baxtiyor Xasanovich

TDMAU, q.x.f.f.d (PhD) v.b dotsent

baxtiyordavronov95@gmail.com

Rajabov Baxtiyor Musulmonovich

TDMAU, assistenti

baxtiyorrajabov7079@gmail.com

Safarov Sunnatullo Azamat o‘g‘li

TDMAU, talabasi

sunnatullo safarov12@gmail.com

Annotatsiya: Tadqiqotlarda xo‘jalikda o‘shish davrlarida turli eksterer-konstitutsiya tipidagi sigirlardan olingan buqachalarni tirik vazn embrional davirdan keyingi o‘shishiga, rivojlanishiga hamda go‘sh t mahsuldorligiga onalarining konstitutsional tipining irsiy potentsiali ma‘lum miqdorda ta‘sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Qora-ola zoti, turli, eksterer, kostitutsiya, sigirlardan olingan buqachalar, 6 oylik yoshiga qadar o‘shishi, rivojlanishi, mahsuldorlik.

Аннотация: Исследования показали, что генетический потенциал конституционного типа матери оказывает определенное влияние на живую массу, постэмбриональный рост, развитие и мясную продуктивность быков, полученных от коров разных экстерьерно-конституциональных типов в периоды выращивания в хозяйстве.

Ключевые слова: Порода Черно-пёстрый, разновидность, экстерьер, конституция, телята от случки, рост, развитие, продуктивность до 6-месячного возраста.

Abstract: Studies have shown that the genetic potential of the mothers' constitutional traits has a certain influence on the live weight of bulls obtained from

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

cows of different exterior and constitutional types during the growing period on the farm, their growth after the embryonic period, development and meat productivity.

Keywords: Black-and-White breed, variety, exterior, constitution, calves from mating, growth, development, productivity up to 6 months of age.

Kirish: Respublikamiz xo‘jaliklarida urchitish uchun rejalashtirilgan qoramol zotlari orasida qora-ola zotli mollar alohida o‘ringa ega. Ma’lumki, bu zotli qoramollar sut mahsuldor yo‘nalishda bo‘lib, zot ichida 3 xil mahsuldorlik yo‘nalishiga ega mollar uchraydi. Bu esa ushbu zot urchitilayotgan xo‘jaliklarning muayyan mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashganlik yo‘nalishiga qarab, zotning mahsuldorlik xili bo‘yicha mollarni tanlab olib urchitish imkoniyatini beradi. Hozirgi vaqtda turli mintaqalarda shvits zotiga mansub sigirlarning sut, sut-go‘sh va go‘sh-sut mahsuldorligi atroflicha o‘rganilgan, ammo ushbu mahsuldorlik yo‘nalishlaridagi sigirlardan olingan buqachalarning o‘shish, rivojlanishi, go‘sh mahsuldorligi va go‘shning sifat ko‘rsatkichlari maxsus tadqiqotlarda o‘rganilmagan. Bu esa ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish, go‘sh yetishtirish uchun tanlab olinadigan buqachalarni onalarining eksterer - konstitutsional tiplari bo‘yicha tanlab olish va bunda eng maqbul tipni aniqlash go‘sh ishlab chiqarishni xajmini oshirishda muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi va hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 60-sonli Farmoni. “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5017-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning maqsadi: Qora-ola zoti turli eksterer-konstitutsiya tiridagi sigirlardan olingan buqachalarning 6 oylik yoshiga qadar o‘shishi va rivojlanishi,

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini ularni onalarining eksterer-konstitutsional tiplariga bog‘likligini asoslash. Zootexniya amaliyotida buzoqlarni go‘sh t uchun boqishda ularning tirik vazni asosiy eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, ishlab chiqarishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Boqilayotgan buqachalarning go‘sh t mahsuldorligi, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan barcha xarajatlarni va shuningdek o‘stirish, parvarishlash hamda bo‘rdoqilash samaradorligini o‘rganishda tirik vazni o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlarda xo‘jalikda o‘sh davrlarida turli eksterer-konstitutsiya tipidagi sigirlardan olingan buqachalarni tirik vazn embrional davirdan keyingi o‘shiga, rivojlanishiga hamda go‘sh t mahsuldorligiga onalarining konstitutsional tipining irsiy potentsiali ma‘lum miqdorda ta‘sir ko‘rsatadi. Tajribadagi buqachalarni tirik vazni dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajribadagi buqachalarning tirik vazn o‘sh dinamikasi (kg)

Buqachalarni yoshi (oylarda)	Qora-ola zotli sigirlar tipi		
	Sut tipi	Sut go‘sh t tipi	Go‘sh t-sut tipi
	X±S _x	X±S _x	X±S _x
Tug‘ilganda o‘rtacha vazni	38,9±0,57	37,3±0,60	36,7±0,60
3-oylik yoshidagi o‘rtacha vazni	106,5±2,57	109,8±1,22	114,5±1,22
6-oylik yoshidagi o‘rtacha vazni	178,0±2,28	184,2±2,79	193,7±2,79

1-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra barcha tajriba guruhidagi buqachalarni tug‘ilgandagi o‘rtacha tirik vazni guruhlar orasida katta farq bo‘lmadi, 3 oylik yoshiga kelib go‘sh t-sut eksterer tana tuzilishiga ega bo‘lgan III-guruh buqachalarining o‘rtacha tirik vazni 114,5 kg-ni tashkil qilib, tengqurlari sut-go‘sh t eksterer tana tuzilishiga ega II-guruh buqachalarning o‘rtacha tirik vazninga nisbatan 4,7 kg-ga yoki 4,1 %-ga, sut tipidagi tana tuzilishiga ega sigirlardan olingan I-guruh buqachalarning o‘rtacha tirik vazninga nisbatan 8 kg-ga yoki 7,0 %-ga ($P \geq 0,99$). Tajribadagi buqachalarning 6 oylik yoshiga kelib III-guruh buqachalarining o‘rtacha tirik vazni 193,7 kg-ni tashkil qildi, tengqurlari II- guruh buqachalarning o‘rtacha

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

tirik vazninga nisbatan 9,2 kg-ga yoki 4,9 %-ga, I-guruh buqachalarning o‘rtacha tirik vazninga nisbatan 15,7 kg-ga yoki 8,1 %-ga ($P \geq 0,999$ yuqori bo‘ldi).

Shuni aytish mumkinki, go‘sh t konstitutsiya tipiga mansub sigirlardan olingan III-guruh buqachalari butun tajribaning 6-oylik davrida davri davomida go‘sh t-sut tana tuzilishi ga ega bo‘lgan sigirlardan olingan buqachalar 157,0 kg mutloq vazn olishga erishib, tengqurlari sut-go‘sh t konstitutsiya tipiga mansub sigirlardan olingan buqachalar 146,9 kg mutloq vazn oldi, tengqurlari sut konstitutsiya tipiga mansub sigirlardan olingan buqachalarda esa bu ko‘rsatkich 139,1 kg-ni mutloq vaznni tashkil qildi. Go‘sh t-sut tipiga mansub sigirlardan olingan buqachalarga nisbatan 15,7 kg yoki 8,1 %-ga kam bo‘ldi.

Xulosa. Olingan ma’lumotlar qora-ola zotli sirlarning go‘sh t hamda sut-go‘sh t konstitutsiya tipidan olingan buqachalari tengqurlari sut tipiga mansub sigirlardan olingan buqachalarga nisbatan jadal ravishda o‘sib rivojlanib tez yetilishidan guvoxlik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 60-sonli Farmoni.

2. Ахмадеева, А. На основе промышленной технологии/ А. Ахмадеева // Молочное и мясное скотоводство. - 1986. - № 3. - С. 45-47.

3. Калашников, В. Мясное скотоводство: Состояние, проблемы и перспективы развития / В. Калашников, Х. Амерханов, В. Левахин // Молочное и мясное скотоводство.- 2010.- №1.- С. 2-5

4. Белков, Г.И. Мясная продуктивность скота разных пород в степной зоне / Г.И. Белков, Р.Х. Суербаев // Зоотехния. - 2003. - № 10. - С. 23-25.